

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARI PLAKAT SAN'ATIDAGI ASOSIY BADIY OBRAZLI IZLANISHLAR

Xudayberganova Dildora Baxrom qizi

K.Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti

1-kurs mustaqil-izlanuvchisi (PhD)

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Axborot

Resurs markazi fondlarni saqlash,

to'ldirish va qayta ishlov berish guruhi katta kutubxonachisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr Ikkinchi jahon urushi yillari plakat san'atidagi asosiy badiiy obrazli izlanishlar to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Plakatlardagi rang-barang tasvirlar orqali, XX asrda o'z faoliyatini olib borgan rassomlar ijodida insonlarga tushunarli tarzda aks yettirilgan turli xil qarashlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Plakat, lozung, propaganda, etalon, agitatsiya, grafika, miniatyura, agitivitrina, spetsifik.

E. V. Xaritonovanning “Плакаты Великой Отечественной войны как источники мобилизации морального духа” maqolasida Ulug' Vatan urushi plakatlari aholi ma'naviyatini mustahkamlash manbalaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan. Aslida psixologik va tarixiy qayta qurish, zamonaviy model plakatning vizual vositalari bilan psixologik ta'sir usullari yaratildi. Tasvirning ixchamligi, plakatning dinamikligi, qo'llanilishida ko'rsatiladi. Plakatda maxsus badiiy tasvir eng muhim va tomoshabinga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushi davrida ma'naviyatni mustahkamlash vatanparvarlik, xalq birligini oshirishga hissa qo'shgan va qat'iyatli urush jarayoni va Buyuk g'alaba to'g'risida maqolada to'xtalib o'tilgan.¹ “Plakatdagi tasvir ongga ham ta'sir qiladi, yangi e'tiqodlar, qadriyatlar, munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Rassomning shaxsiy tajribasi bilan plakat bog'liq. Aks holda u yerda muallif bilan aloqa uziladi...”² Plakat janri grafika va tasviriy san'atning ajralmas qismi hisoblanadi.

1941-yilda fashistlar Germaniyasi Sovet Ittifoqiga hujum qilganda, butun mamlakat bo'ylab e'lon qilindi. O'zbekistonda ham keng ko'lamlil harbiy xizmatga chaqirish ishlari olib borildi. Bu jarayonga tasviriy san'at namoyondalari ham jalb etildi. Ko'pgina rassomlar an'anaviy plener va eskizlardan uzoqlashib, ommani dushmanlarga qarshi kurashishga undaydigan plakatlar yaratishga kirishdilar.

¹ Плакаты Великой Отечественной войны как источники мобилизации морального духа | Е.В. Харитоновна

² Плакаты Великой Отечественной войны как источники мобилизации морального духа | Е.В. Харитоновна

O‘zbekiston Rassomlar uyushmasining 1941-yil 22-iyunda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida operativ axborot plakatlarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. 1941-yil sentabrda O‘zbekiston telegraf agentligi(O‘zTAG)tashkil topdi. Dastlab Toshkenda, so‘ngra Samarqand, Buxoro va Farg‘onadagi bo‘limlarida targ‘ibot plakatlari ishlab chiqarila boshladi. Plakatlarning mazmuni hidobotlarga muvofiq aniqlandi. Bular fashist bosqinchilarining niyatlarini fosh etish, o‘zbek bo‘linmalarini tuzish, frontga sadarbarlik, zavod va dalalarda mehnat jarayonini kuchaytirish, evakuatsiya qilinganlarga yordam ko‘rsatish va yetim bolalarni tarbiyalashga bag‘ishlangan. Dastlab plakatlar qo‘lda chizilgan, bo‘oqlar va trafaretlar yordamida ko‘chirilgan va oz miqdorda chop etilgan. Ular butun respublika bo‘ylab aholi gavjum joylarga, tashkilotlarga o‘rnatilgan. “Vatanni himoya qilishni o‘rganing!” lozungi ostidagi plakat (1941) O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan rassomlar Aleksandr Aleksandrov(1894-1948) va Viktor Volchek (1910-1985) lar tomonidan ishlangan. Kompozitsiya vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan. Safarbarlik jarayoni rassom Nadejda Kashinaning (1896-1977) “Dushmani urishni o‘rganing” (1941) asarida ham o‘z aksini topgan. Urush yillarining ixcham shakldagi plakatlari va keng qamrovli lozunglarida askarlarning jasorati va vatanparvarligi, Vatanni bosqinchilardan fidokorona himoya qilgani tarannum qilingan. 1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushi plakatlari targ‘ibot va tashviqotning eng keng tarqalgan vositalaridan biridir. Rassom Irakliy Toidzening “Vatan chaqirmoqda!”, D.S. Murning “Siz frontga qanday yordam berdingiz?” kabi 1941-yilda yaratilgan mashhur plakat asarlarini kim bilmaydi. Ba‘zan ularning ishi eng dahshatli qurol sifatida nishonga to‘g‘ri kelgan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Adolf Gitler ba‘zi plakatchi rassomlarni o‘zining shaxsiy dushmani deb bilgan va hatto Gestaponing “qora ro‘yxati”ni tuzgan bo‘lsa, unga ko‘ra Moskva qo‘lga kiritilgandan keyin ularni topib, osib qo‘yishni niyat qilgan. Birinchi “TASS OYNASI” plakatlari 1941-yil 27-iyunda chiqdi, keyinchalik har hafta chiqib boshladi. Yagona vatanparvarlik ruhida ustaxonada turli kasb egalari ishladilar: haykaltaroshlar, rassomlar, teatr rassomlari, grafik rassomlar, san‘atshunoslar shular jumlasidandir. “TASS OYNASI” rassomlar jamoasi uch smenada ishladi. Butun urush davomida ustaxonaning chiroqlari hech qachon o‘chmasdi. Odatda, plakatlar 24 soat ichida tayyor bo‘lardi, ba‘zi favqulodda holatlarda esa 4 soatda ham yaratilgan. Plakatlarning qahramonlari askarlar, front ishchilari, blokadadan omon qolganlar edi. 4 yil davomida plakatchi rassomlari 1250 dan ortiq asar yaratdilar. Tarixiy manbalarga ko‘ra rassomlar vaziyatgaber zumda munosabat bildirishgan, darhol eskizlarni ishlashgan, shoirlar she‘rlar yozishgan. Bosmaxonalar bu holatga “bardosh bera olmadi” va keyinchalik plakatlar qo‘lda “trafaret qilingan”. Moskvada “TASS OYNASI” ustaxonasida o‘nlab rassom va shoirlar kechayu kunduz mehnat qilishdi. Dastlabki urush yillari plakatlari nizo boshlangan kunning ertasigayoq tayyor bo‘ldi. O‘shandan beri “TASS OYNASI” deyarli har kuni yangi plakat namunalarini chop

ettirgan. Mazkur ustaxona qatorida O‘zbekistonda ham “O‘ZTAG OYNASI” shiddat bilan o‘z faoliyatini olib bordi. Plakatlarda fuqarolarni mehnat, matonat, kurash va hushyorlikka chorlab, muayyan vaziyatda qanday harakat qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilib borilgan. Insoniyat tarixidagi eng dahshatli urushlardan birida o‘zbek xalqining vatanparvarlik ruhining yuksalishini kuzatish mumkin edi, bu esa san‘atning ko‘plab jabhalariga ta’sir qilmasdan qolmadi. O‘sha davrdagi plakatlarda aks etgan tasvirlar va chorlovlar nemis bosqinchilariga qarshi kurashda kuchli qurolga aylandi. Plakatlarda propaganda zamonaviy siyosiy nutqda jamoatchilik fikrini shakllantirish yoki targ‘ibotchilar tomonidan ko‘zlangan boshqa maqsadlar uchun qarashlar, faktlar, dalillar va boshqa ma’lumotlarni tarqatish tushuniladi. O‘rganishlar shuni ko‘rsattiki, plakatlardagi propaganda lozunglarining o‘z maqsadlari mavju bo‘lgan. Ular quyidagilar: Odamlarning his-tuyg‘ulariga ham, ongiga ham ta’sir qilish; Propaganda siyosiy manipulyatsiyaning asosiy vositalaridan biridir; Propagandani reklama bilan solishtirib bo‘lmaydi. Reklama o‘zini-o‘zi taqdim etish yoki axborot janriga yaqinroqdir. Ikkinchi jahon urushi yillarida qurolli kuchlar va aholini og‘ir urush olib borishga safarbar qilish, shuningdek, dushman armiyasi va bosib olingan dushman hududlari aholisiga ta’sir o‘tkazish zarurati urushayotgan mamlakatlarda turli tashviqot texnologiyalarining gullab-yashnashiga aylandi. Ulug‘ Vatan urushi davridagi plakatlarda Vatanni himoya qilishga chaqirdi, xalqni o‘z kurashining adolatliligiga ishonitirdi. O‘zSSSRning deyarli barcha nashriyotlarida plakatlarda bosilgan. Mashhur shoir va yozuvchilar mazmun ustida ishladilar, rassomlar esa rejalashtirilgan ishlarning illyustrativ timsoli ustida ishladilar.³ Plakatning markazida ko‘pincha yorqin psixologik xususiyatga ega bo‘lgan odamning qandaydir tasviri bor edi. Tasvirda uchta rang ustunlik qildi: qizil, oq va qora.

- Qizil rang qon va olovning ramzi.
- Oq – poklik.
- Qora - o‘lim, qayg‘u.

Plakatlardagi qizil rang jang maydonlarida to‘kilgan qonni, vafot etganlarni, vafot etgan begunoh bolalarning ramzini anglatadi. Rangning ta’sir kuchi benihoya cheksizki, aynan qizil rang tomoshabinda hissiy jihatdan dushmanlarga nafrat va qasos olish istagini keltirib chiqaradi. Balki shuning uchun ham tasvir juda muhim hisoblanadi. Chunki u tasvir asoslangan dinamik harakat illyuziyasidir. Plakatlar mualliflari tez g‘alabaga umid qilib, uni va ozod qiluvchi askarlarni o‘z san‘ati bilan ulug‘lashgan. Ona obrazida Vatan timsoli aks ettirgan mashhur plakatchi rassom Irakliy Toidze o‘zining rafiqasini natura qilib tanlagan. Xotini urush boshlanganini e’lon qilish uchun ustaxonaga yugurib kirganida yuzidagi ifoda uni hayratda qoldirdi.

³ СОВЕТСКИЙ ПЛАКАТ ВРЕМЕН ВЕЛИКОЙ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ВОЙНЫ: ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНЫЙ И РЕГИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТЫ Е.А. Федосов1, К.А. Конев2 Национальный исследовательский Томский государственный университет Россия, 634050, г. Томск, пр. Ленина, 36

1941-yil 4-iyulda (urush boshlanganidan ikki hafta o'tgach) plakat chop etila boshlandi. Vatan timsoli keyinchalik tashviqotining eng keng tarqalgan tasvirlaridan biriga aylandi. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va reklamada mazkur plakat tasvirining ko'plab talqinlari paydo bo'ldi. O'zbekistonda XX asr boshlarida rasmiy plakatlarning doimiy an'anasi yo'q edi. Qoidaga ko'ra, plakatlar va ommaviy e'lonlar faqat diqqatga sazovor badiiy shriftlarning turli xil variantlari bilan yaratilgan. Bu tendensiya uzoq vaqt davom etdi. O'zbek plakatining yana bir ustasi Konstantin Cheprakov (1907-1972) edi. Uning ko'rgazmadagi harbiy ishlaridan 1941-yilgi "G'alaba bizga bog'liq" targ'ibot plakatini ko'rish mumkin. Rassomlar A. Venediktov, B. Jukov, V. Rojdestvenskiy va boshqalar fashizmga qarshi plakat janrida juda ko'p ish qildilar. Urush yillarida O'zbekiston plakatchi rassomlari tomonidan olingan ijodiy mas'uliyat XX asrning 1940-yillari ikkinchi yarmida, davlatning asosiy e'tibori iqtisodiy masalalarga qaratilayotgan paytda ham o'z faoliyatini davom ettirdi. Aynan urush yillarida butun Sovet ittifoqi davlatlarining musavvirlari tomonidan juda ham ko'p plakatlar yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Виктория Г. ДОЛИНСКАЯ ПЛАКАТ УЗБЕКИСТАНА Типография Издательства «Фан» УзССР Ташкент, ул. Черданцева, 21. А дрес Издательства: ул. Гоголя, 70. Ташкент, 1968.
2. Виктор С.И. КАК СОЗДАЕТСЯ ПЛАКАТ Издательство Академии художеств СССР Москва. Ленинградский пр., д. 62 Полиграфкомбинат, г. Калинин, пр. Ленина, 1962.
3. Виктор Б. К. ТОВАРИЩ ПЛАКАТ. ОПЫТ, РАЗМЫШЛЕНИЯ Сдано набор 1980.
4. Веймарн Б.В. ИСКУССТВО СОВЕТСКОГО УЗБЕКИСТАНА Очерки. Живопись. Графика. Скульптура / Б.В. Веймарн, Н. В. Черкасова; Акад. художеств СССР. Науч.-исслед. ин-т теории и истории изобразит. искусств. Москва: Искусство, 1960.